

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AKBAROVA MUNIRA SHAVKATOVNA

**BADIIY MATNDAGI G‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 811.512.133’367.4+821.512.133.09

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Akbarova Munira Shavkatovna

Badiiy matndagi g‘ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlari 3

Акбарова Мунира Шавкатовна

Лингвопоэтические особенности необычных сочетаний
в художественных текстах 31

Akbarova Munira Shavkatovna

Linguopoetic features of unusual compounds in literary text..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AKBAROVA MUNIRA SHAVKATOVNA

**BADIIY MATNDAGI G‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2157 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jamolitdinova Dilnoza Mirhojiddinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «15» may soat 14:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrishabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (20 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «29» aprel da tarqatildi.
(2024-yil «29» aprel da 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

G'.M. Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, f.f.n., katta ilmiy
xodim

D.S. Xudayberganova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asar tiliga ilmiy yondashuv va undagi til birliklarining asar matnidagi maqsadi, vazifasi, shuningdek, uning ifoda imkoniyatlari hamda kognitiv, lingvomadaniy xususiyatlariga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. XX asr oxirlaridan boshlab, badiiy matnning pragmatolingvistik, lingvokognitiv, lingvomadaniy va lingvopoetik jihatlarini o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Buning natijasida til ilmida ijodkor shaxsning olamni idrok etishi, u haqidagi tasavvurlari, assotsiativ tafakkuri, voqelikka munosabatining badiiy nutqda namoyon bo'lishi kabi masalalar dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bu borada badiiy asar tiliga antropotsentrik jihatdan yondashgan holda tildek murakkab hodisaning mohiyatini tugal va aniq anglash imkonini beruvchi lingvopoetika sohasi jadal rivojlanmoqda. Badiiy asarda tasvirlanayotgan voqelik bilan bog'liq holda yaratilgan birikmalarning badiiy matni yuzaga keltirishdagi o'rniga baho berish, shuningdek, badiiy til mahoratini belgilash orqali milliy tilning ifoda imkonlarini aniqlash dolzarb vazifalardan sanaladi.

Dunyo tilshunosligida badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish matn ichidagi birliklarning o'zaro aloqasini, aloqadorliklar hosil qilishini va muayyan birlikning muayyan poetik maqsadda aktuallashuvini atroflicha o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda olib borilayotgan lingvopoetikaga oid tadqiqotlarda til birligi va uning badiiy matndagi ifoda shakllari, u yoki bu lisoniy birlikning poetik maqsadda aktuallashuvi, dialogik va monologik nutqda qo'llaniluvchi badiiy-tasviriy vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari, matnlararo aloqadorliklarning funksional xususiyatlari, fanlararo integratsiyani ta'kidlovchi tadqiqot tamoyillari va ijodkor mahoratini belgilovchi hodisalar tadqiqiga ko'proq e'tibor qaratilayotganligi sezilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj lingvopoetikaga oid izlanishlarning maqsad va vazifalarini ham belgilamoqda. Shu bois dunyo tilshunosligida badiiy matn va ularning mohiyatini batafsil ochib berish lingvopoetika yo'nalishidagi muammoning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida ham tilning sintaktik sath birliklari hamda lisoniy birliklarning kognitiv va lingvomadaniy tadqiqi borasida, shuningdek, g'ayriodatiy birikmalar ustida ham monografik aspektida tadqiqot olib borilmoqda. G'ayriodatiy birikmalarni o'rganish badiiy nutqdagi poetik aktuallashgan muayyan so'zlarning ijodkor badiiy tafakkuri bilan bog'liq holda ifoda etadigan ma'nolarini chuqur anglashga yordam beradi. "Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Shu jihatdan qaraganda, tilshunoslikda badiiy matn va undagi lug'aviy birliklarni antroposentrik tamoyillarga asoslangan holda tadqiq etish, shuningdek, ularning fonopoetik va matnning lingvokognitiv xususiyatlarini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // www.lex.uz.

ochib berish hamda matndagi madaniy konseptlarning mohiyatini monografik tarzda tadqiq etish ana shunday vazifalardab hisoblanadi. Shuningdek, badiiy matnni badiiy asar tilini lingvokognitiv aspektda tadqiq etib, uni kognitiv modellashtirish kabilar hozirgi tilshunosligimiz uchun yangi ilmiy xulosalar berish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakati-mizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi-ning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos holda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda lingvopoetika yo‘nalishida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, monografiyalar chop etilgan. Lingvopoetikaga oid bu ishlarda ekspressiv sintaksis birliklari sifatida sintaktik parallelizm, inversiya, gradatsiya, oksyumoron kabi bir qator hodisalar tilga olinadi.

Jahon tilshunosligida oksyumoron termini bilan bir qatorda “individual-muallif birikmalari, okkazonal birikmalar, noodatiy birikmalar, atributiv birikmalar, epitet birikmalar”² termini ham qo‘llanadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda badiiy tasvir vositalarining lingvopoetik xususiyatlari, badiiy-sintaktik figuralar, troplar yuzasidan I.Mirzayev, M.Yo‘ldoshev, M.Yoqubbekova, S.Karimovlar, M.Abdupattoyevlarning doktorlik³ ishlari, D. Zaynutdinova, G. Muhammadjonova, M. Yo‘ldoshev, E.Ibragimova,

² Степанов Ю.С. Имена, предикаты, предложения. – М., 1981. – С. 250; Бабенко Н.Г. Оказиональное в художественном тексте. Структурно-семантический анализ: Учебное пособие. – Калининград: Калинингр. гос. ун-т, 1997. – С. 39; Цыганенко Г.П. Русский язык. Морфемика. Словообразование. Этимология. – Донецк, 1999. – С. 119; Жданович Н.В. Необычные сочетания в поэтической речи: индивидуально-авторский метафорический эпитет. Слово во времени и пространстве. – Минск, 1999. – С. 51; Маслова В.А. Филологический анализ поэтического текста. – Минск, 1999. – С. 72.

³ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс.... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с; Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 27 б; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуги: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.

O.Mamaziyayev, D.Jamoliddinova, D.Shodiyeva, S.Umirova, O.Tursunova, A.Saminov, M.Xusanovalarning nomzodlik dissertatsiyalari⁴ amalga oshirilgan. A.Mamajonov, U.Mahmudovlarning “Uslubiy vositalar” nomli qo‘llanmasida⁵ esa antiteza, parallelizm, sanash usuli, gradatsiya, inversiya kabi bir qator uslubiy figuralar to‘g‘risida ilmiy fikrlar bayon etilgan. O‘zbek tilshunosligida badiiy matn doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar salmoqli o‘rin tutayotganligining o‘zi ham tilning ekspressiv vazifasiga ko‘p e‘tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbek tilshunosligida *g‘ayriodatiy birikmalar* terminini qo‘llash yuzasidan fikrlar dastlab tilshunos olim, professor N.Mahmudovning X.Abdurahmonov bilan hammualliflikda chop etilgan “So‘z estetikasi”⁶ nomli qo‘llanmasida bayon qilingan. Mazkur qo‘llanma ushbu stilistik figuraga batafsil ta‘rif berilgan, ilmiy asoslangan va namunalar bilan izohlangan yagona salmoqli ilmiy manba hisoblanadi.

Ta‘kidlash joizki, bugunga qadar o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika, badiiy stilistika, ekspressiv sintaksis bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ko‘rib o‘tilgan ishlarning hech birida *g‘ayriodatiy birikmalar, ularning lingvopoetik xususiyatlari* asosiy ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matndagi *g‘ayriodatiy birikmalar*ning semantik, grammatik hamda lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- g‘ayriodatiy birikmalarning termin sifatidagi qamrovini aniqlash;
- g‘ayriodatiy birikmalarning ijtimoiy, lisoniy-badiiy qiymatini ochib berish;
- g‘ayriodatiy birikmalarning yondosh hodisalar bilan munosabatini ochib berish va tahlil qilish;
- g‘ayriodatiy birikmalarning semantik va grammatik jihatlarini aniqlash;
- g‘ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritish.

⁴ Зайнутдинова Д. Необычные словосочетания в русском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б; Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 25 б; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – 26 б; Жамолитдинова Д. Бадий нутқда парантез бирикларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б; Умирова С. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 48 б; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирикларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019. – 132 б; Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 12 б; Саминов А. Оксюморон – бадий нутқда лингвопоэтик восита сифатида: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 50 б; Xusanova M. Farida Afro‘z poetik asarlarida ekspressivlik ifodalovchi lisoniy vositalar tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD)... diss. – Farg‘ona, 2022. – 132 b.

⁵ Мамажонов А., Махмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996. – 47 б.

⁶ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.

Tadqiqotning obyekti sifatida Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Qahhor, S.Ahmad, T.Malik, O'.Hoshimov kabi mahoratli o'zbek yozuvchilarining asarlaridan olingan g'ayriodatiy birikmalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida o'zbek tilidagi badiiy matnlarda qo'llangan g'ayriodatiy birikmalarining semantik va lingvopoetik xususiyatlari belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, diskursiv, assotsiativ, qiyosiy-solishtirma, statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

matnga lingvopoetik kuch beruvchi okkazonal birikmalar, oksyumoron va noodatiy birikmalarining muayyan badiiy maqsadni ifodalovchi hamda umumlashtiruvchi kabi belgilari aniqlanib, o'zbek tilshunosligiga "g'ayriodatiy birikmalar" yangi ilmiy termin sifatida olib kirildi;

g'ayriodatiy birikmalarni hosil qilishda til birliklarilarning birlamchi idrok etish vaqtida o'zida olib yuradigan semantik yuki uning urg'uli, alohida mantiqsizligi va g'ayritabiiyligi sababli semantik valentlikning qasddan buzilishi asosiy omil ekanligi dalillangan;

badiiy matnda sifat+ot *zaif tabassum*, sifat+fe'l *sovuq vishillamoq*, ot+fe'l *shamol o'kirar*, ot+ot *sukunat seli*, sifatdosh+ot *o'kirgan dengiz* kabi g'ayriodatiy birikmalarining yaratishda ot, sifat, fe'l so'z turkumlarining faol ishtiroki, shuningdek, son, ravish, olmosh so'z turkumlarining esa nofaol bo'lishi aniqlangan;

g'ayriodatiy birikmalar badiiy matnda **so'z birikmasi** *Xalqimizning eng kirlik kunlarini tasvirlamoqchiman*, **kengaytirilgan birikma** *Ot bu go'zal ovoznining shirin kuylari ostida boshini quyi solib, bo'ynini asta-asta likillatib bitta-bitta qadam bosardi*, **butun gap** *Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi* tarzlarida yuzaga chiqishi va shu orqali matnning badiiy-estetik qiymatini oshirishi ochib berilgan;

g'ayriodatiy birikmalar yozuvchining individual-badiiy uslubini shakllantiradigan va badiiy-estetik, ekspressiv-emotsional aktuallashuv xususiyatini namoyon etadigan sintaktik birliklar sifatida *shirin xotira*, *achchiq g'am* kabi birliklarda badiiy nutq birligidan o'zidagi "yangilik" belgisi orqali til birligi tomon siljishi hamda vaqt o'tishi bilan "yangilik" bo'yog'ini yo'qotib, og'zaki nutqqa *shirin xotira*, *achchiq g'am* kabi odatiy birikma sifatida ko'chishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichining lingvistika yo'nalishida o'rganiladigan "Lingvistika nazariyasi va amaliy tilshunoslik", "Lingvopoetika", "Kognitiv tilshunoslik" va boshqa fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy ko'rsatmalarni yaratishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

tadqiqot natijasida olingan xulosalar tilshunoslik faniga yangi ilmiy-nazariy ishlanmalar bilan hissa qo'shishi, shu bilan birga, lingvopoetika sohasining rivojlanishida muayyan ilmiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilishi dalillangan;

badiiy matn orqali voqea-hodisani o'quvchi shaxsiga yetkazib berishda, ijodkor badiiy olamini baholashda g'ayriodatiy birikmalarning alohida ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib chiqilayotgan muammoning aniqligi, g'oyalarning lingvistik qonuniyatlarga mos, to'g'ri qo'llanilganligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlillar, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar, xulosalar lingvopoetika sohasini boyitganligi, g'ayriodatiy birikmalarni semantik-grammatik, lingvopoetik jihatdan tahlil qilish usullarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati badiiy matnning lingvopoetik xususiyatini o'rganishda muhim ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi. Undan oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichining o'zbek tili va adabiyoti, lingvistika yo'nalishlarida "Poetik matnning assotsiativ strukturasi", "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili" mavzularida tanlov fanlaridan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matnda qo'llanadigan g'ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlari tadqiqi bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek tilshunosligida "g'ayriodatiy birikmalar" terminini yangi termin sifatida turg'unlashtirish, ularning oksyumoron va okkazonalizm bilan o'zaro munosabatini aniqlash, oksyumoronni tilshunoslik nuqtayi nazaridan g'ayriodatiy birikmalar termini ostida tadqiq qilish mumkinligi hamda g'ayriodatiy birikmalarni hosil qilishda so'zlardagi semantik valentlikning qasddan buzilishi asosiy omil ekanligi haqidagi xulosalardan 2016-2017-yillarda olib borilgan JDPI-MUZ-2015-0725140051 "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini boyitishda inglizcha-ruscha-o'zbekcha frazemalar lug'atini yaratish va amaliyotga tatbiq etish" innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan. (Jizzax davlat pedagogika institutining 2023-yil 2-dekabrda 04-1455-son ma'lumotnomasi) Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

g'ayriodatiy birikmalarni hosil qilishda til birliklarilarning birlamchi idrok etish vaqtida o'zida olib yuradigan semantik yuki uning urg'uli, alohida mantiqsizligi va g'ayritabiiyligi sababli semantik valentlikning qasddan buzilishi asosiy omil ekanligi bo'yicha chiqarilgan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida 2021-2022-yillarda "O'zbek harbiy san'ati tarixi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining 2023-yil 11-oktabrdagi 10/2025-son ma'lumotnomasi) Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

g'ayriodatiy birikmalar yozuvchining individual-badiiy uslubini shakllantiradigan va badiiy-estetik, ekspressiv-emotsional aktuallashtiruvchi xususiyatini namoyon etadigan sintaktik birliklar sifatida *shirin xotira, achchiq g'am* kabi

birliklarda badiiy nutq birligidan o‘zidagi “yangilik” belgisi orqali til birligi tomon siljishi hamda vaqt o‘tishi bilan “yangilik” bo‘yog‘ini yo‘qotib, og‘zaki nutqqa *shirin xotira, achchiq g‘am* kabi odatiy birikma sifatida ko‘chishi mumkinligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali”da efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 7-avgustdagi 04-36-1178-sonli ma’lumotnomasi) Natijada dasturlar ssenariysi nazariy va amaliy jihatdan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida, jumladan, 4 ta respublika hamda 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari jami 22 ta ilmiy maqolada o‘z aksini topgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi oydinlashtirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning joriylanishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**G‘ayriodatiy birikmalar va ularning o‘rganilishi**” deb nomlangan. Ushbu bobda jahon va o‘zbek tilshunosligida g‘ayriodatiy birikmalar va ularning o‘rganilishi hamda yondosh hodisalar bilan o‘xshashlik va farqli jihatlari, g‘ayriodatiy birikmalarning badiiy matn lingvopoetikasida tutgan o‘rni kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu bobning “**Tilshunoslikda g‘ayriodatiy birikmalar muammosi**” deb nomlangan birinchi faslida g‘ayriodatiy birikmalarning o‘rganilishi haqida so‘z boradi.

Tilshunoslikning eng dolzarb sanaladigan masalalaridan biri til va nutq hodisalarining nutqiy kommunikatsiya jarayonida harakatga kelishi va o‘zaro munosabati hamda aloqadorligini o‘rganish masalasidir. Til birliklarining eng muhim elementi hisoblanmish so‘z tilda o‘zga qiyofa va vazifani, nutqda esa o‘ziga xos bo‘lgan boshqa qiyofa va vazifani ado etadi. Bundan ko‘rinadiki, til va nutq o‘zaro farqli jarayon, shu bilan bir qatorda biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo etadi. Nutq birliklari nutqiy jarayonda hosil

bo'ladi, shuningdek, nutq jarayoni til birliklarining o'zlarini namoyon etish, turlicha qo'llanish xususiyatlari, o'zgacha bir ma'no va qiyofa kashf etishi uchun zarur bo'lgan kommunikativ maydon sanaladi. Shunga ko'ra, so'zlardagi ma'no qirralarini ochiq ifodalash, ularni ro'yobga chiqarish uchun nutq jarayoni kerakli shart-sharoitlarni yaratadi.

Jahon filologiyasida shu kunga qadar badiiy asar tilini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlardan kelib chiqadigan asosiy to'xtamga ko'ra, badiiy asarlarning estetik ta'sirchanlik kuchini va qimmatini belgilash lingvopoetik tadqiqotlarning asosiy bosh maqsadlaridandir. Shu bois lingvopoetikada badiiy asar tilini har tomonlama o'rganish, obrazli nutqning yuzaga chiqishida badiiy tilning ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiq etayotgan g'ayriodatiy birikmalar jahon tilshunosligida uzoq vaqt davomida oksyumoron, ba'zan noodatiy birikmalar, okkazional birikmalar, atributiv birikmalar, oraliq birikmalar terminlari ostida o'rganib kelingan.

Rus tilshunosligida ham bunday stilistik figuralar turlicha talqin qilinadi. Bu hodisani Yu.S.Stepanov "semantik muvofiqlashtirish"⁷ deb ataydi. U bu birikmalardagi ikki komponentning birikma shaklini xosil qilishida semantik uyg'unlikning yuzaga kelishi sabab ekanligiga ishora qiladi. N.G. Babenko ham yuqoridagi kabi fikrni ilgari suradi: "...bunday leksemalarning odatiy birikishi mumkin emas, chunki bu ularning leksik ma'nolarida umumiy semalarning yo'qligi sababli semantik kelishik qonuniga ziddir. Tobe komponentda kontekst-semantik siljishlar paydo bo'lishi tufayligina iboralarda umumiy semalar paydo bo'ladi"⁸. G'ayriodatiy birikmalarning shakllanishida leksemalarning umumiy sema hosil qilishi, kontekst bilan bog'liq holda ro'yobga chiqishi asosiy omil ekanligi yuqoridagi fikrlardan ham anglashiladi.

Ayrim tilshunoslar tomonidan okkazional birikmalar termini qo'llanilishi ham kuzatiladi: "Okkazional birikmalar har doim ifodali va nominativ jihatdan ixtiyoriy bo'ladi, chunki ular faoliyatga qarab, aniq holat bilan bog'langan okkazionalizm mahsulidir"⁹.

Ba'zan esa atributiv birikmalar terminiga murojaat qilinadi: "Nostandart atributiv birikmalarning aksariyati leksemalardan metaforik foydalanish natijasida yuzaga keladi. Avvalo, poetik nutqda u yoki bu taqsimot uchun noodatiy birikmalarning paydo bo'lish mexanizmlari qiziqish uyg'otadi va bu mexanizmlardan biri qarash, rag'batlantiruvchi tasvirning mavjudligi. Alohida muallifning metaforik epiteti, ehtimol, bizning dunyo haqidagi g'oyalarimizni majoziy shaklda ifodalashning asosiy vositalaridan biri va badiiy matnning boy assotsiativ imkoniyatlaridir. Birikmalarning sintagmatik xususiyatlari semantik jihatdan g'ayrioddiy, kutilmagan hodisalarning paydo bo'lishiga yordam beradi"¹⁰.

⁷ Степанов Ю.С. Имена, предикаты, предложения. – М., 1981. – С. 250.

⁸ Бабенко Н.Г. Окказиональное в художественном тексте. Структурно-семантический анализ: Учебное пособие. – Калининград: Калинингр. гос. ун-т, 1997. – С. 39.

⁹ Цыганенко Г.П. Русский язык. Морфемика. Словообразование. Этимология. – Донецк, 1999. – С. 119.

¹⁰ Жданович Н.В. Необычные сочетания в поэтической речи: индивидуально-авторский метафорический эпитет. Слово во времени и пространстве. – Минск, 1999. – С. 51.

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda mazkur hodisani nomlash uchun ma‘lum bir termindan foydalanish qoida tusiga kirmagan.

O‘zbek tilshunoslik olamida so‘z san’atkorlarining badiiy matnlarda so‘z qo‘llash usullari, matnning badiiy-estetik qiymatini sezilarli darajada oshiruvchi til birliklari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda badiiy nutqda tutgan o‘rni haqida bayon etilgan qimmatli manba bu o‘zbek tilshunosligining ardoqli vakillari bo‘lgan X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar qalamiga mansub bo‘lgan “So‘z estetikasi” nomli qo‘llanma hisoblanadi. Mualliflar ushbu qo‘llanmada “g‘ayriodatiy birikmalar” terminini qo‘llaydilar va unga shunday ta’rif keltiradilar: “...Yirik rus shoirlaridan biri shunday yozgan edi: “Men “yulduz uchdi”, “uchar yulduzlar” iboralaridan jahllangan bir kishini uchratdim. – Nahotki, – dedi u, – yulduzlar emas, meteoritlar uchishini bilmasangiz? – Yo‘q, yulduzlar uchadi, deyman men. Narsalarning qat’iy, yalang‘och mohiyati bilangina fikrlay boshlasak: ha, meteoritlar uchadi; ha, marvaridgul – bor-yo‘g‘i zaharli yoki, aytaylik, dorivor o‘simlik; ha, soy so‘zlamaydi, faqat suv oddiy shildiraydi; ha, biz dengiz emas, balki bor-yo‘g‘i suv ombori yaratamiz; ha, bizda bog‘lar emas, balki mevali daraxtlar o‘tqazilgan yoki mevali butalar bilan qoplangan bir qism yer bor; ha, muhabbat – muhabbat emas, balki naslni davom ettirishga bo‘lgan oddiy instinktiv fiziologik intilishdir. Estetik butunlik bo‘lgan badiiy asar ijodkori uchun esa “narsalarning qat’iy, yalang‘och mohiyati” emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy nutqda o‘zaro bog‘lanishi chegaralangan so‘zlarni bog‘lash orqali turli ma‘no nozikliklari, ekspressivlik, emotsionallik va shu kabilarni yuzaga keltirishdir. Badiiy nutqdagi bunday birikmalarni shartli ravishda *g‘ayriodatiy birikmalar* deb ataymiz”¹¹. Professor N.Mahmudov o‘zining “So‘z shayxining mo‘jizalari” nomli maqolasida “g‘ayriodatiy birikmalar” terminini yana shunday izohlaydi: “...Muallif bunday birikmalarni tuzar ekan, u til qonuniyatlariga nopisandlik yoki zo‘rluk qilmaydi. Hassos so‘zchi sifatida u tilning botinida, tub qatlamlarida yashiringan so‘z qo‘shilishi imkoniyatlarini badiiy niyatiga muvofiq tarzda ishga soladi. Buning natijasida kutilmagan so‘z qo‘shilmalari yuzaga keladi, ular o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qiladi va uni o‘ylashga chorlaydi, alal-oqibat u bu qo‘shilmalarda pinhon bo‘lgan ma‘no injaliklarini kashf etadi”¹². Badiiy so‘z ijodkori tasvirlanayotgan voqea-hodisani o‘quvchiga noodatiy tarzda ifodalashni ixtiyor etgan holda ko‘rinishidan mantiqsizdek tuyulgan ma‘lum bir vositalar orqali ma‘no nozikliklarini, nutqning jarangdor va takrorsiz ko‘rinishlarini yuzaga chiqaradi, hissiy-ta’sirchanlikni o‘zida aks ettiruvchi g‘ayritabiiy til birliklarini vujudga keltiradi. Bu borada Aristotelning “Poetika” asarida quyidagi fikrlarni uchratish mumkin: “Aqlga to‘g‘ri kelmaydigan narsa hamisha ham aqlga nomuvofiq bo‘lavermaydi: axir, mumkin bo‘lmagan narsalar ham ko‘p sodir bo‘lishi mumkin”¹³. Bu fikri orqali Aristotel bir qarashda inson ongi qabul qilmaydigan voqeliklar ham hayotda ko‘plab topilishi, lekin ularni mantiqsizlikda ayblamaslik,

¹¹ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 38.

¹² Махмудов Н. Сўз шайхининг мўжизалари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2009-йил, 7-сон. – Б. 6.

¹³ Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 57.

aksincha, yangi bir hodisaning voqelanishi ekanligini ta'kidlaydi. Shu bois nutqda mavjud bo'lgan, til uchun noodatiy tasvirlarni mantiqning yo'qligi yoki xato deb emas, nutqiy jarayondagi yangicha qarash, yangi bir mantiqning ifodasi sifatida qabul qilish lozim. Masalan, *haqorat balchig'i, bulutlar qitmirligi, shovullagan sukunat, mardona chiroy, achchiq shamol, sovuq shovqin, soqov cho'l, qora qatlamlar, qing'ir-qiyshiq ulfatlar, alamlar tikanzori, tashvish choyshabi, pishqirgan shamol, maymoq supurgi, sovuq olov, injiq bulutlar, irkit oy, tiriklar go'ristoni, qo'lansa gap, suyuq hayajon, yashil shabboda* kabi birikmalarni chinakam g'ayriodatiy birikmalar deb aytilish mumkin.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida, aynan g'ayriodatiy birikmalar tadqiqiga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, badiiy matnda tasvir vositalarining lingvopoetik xususiyatlari, badiiy-sintaktik figuralar, troplar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar sifatida I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, M.Yoqubbekova, S.Karimov, M.Abdupattoyevlarning doktorlik ishlarini¹⁴, D.Zaynutdinova, G.Muhammadjonova, M.Yo'ldoshev, E.Ibragimova, O.Mamaziyayev, D.Jamolitdinova, D.Shodiyeva, S.Umirova, O.Tursunovalarning nomzodlik dissertatsiyalarini¹⁵, bundan tashqari, oksyumoron hodisasi haqida X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Mamajonov, A.Nurmonov, U.Mahmudov, M.Abdupattoyev, M.Yo'ldoshev, M.Qurbonovalarning monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalarini¹⁶, A.Mamajonov, A.Nurmonov, G.Roziqova, D.O'rayeva, V.Kamoliddinova, H.Do'smatov, N.Bazarbayeva N.Sadinova, U.Nosirova, J.Matnazarovlarning ilmiy maqolalarini¹⁷ e'tirof etish mumkin.

¹⁴ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс.... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 40 с; Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 27 б; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.

¹⁵ Зайнутдинова Д. Рус ва ўзбек тилларида ғайриодатий бирикмалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б; Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 25 б; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – 26 б; Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирикларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б; Умирова С. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 48 б; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирикларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019 – 132 б; Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясашиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 12 б.

¹⁶ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б; Мамажонов А. Кўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 31 б; Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 Жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 156 б; Мамажонов А., Махмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1994. – Б. 48; Мамажонов А., Addupattoyev М. О'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti: Monografiya. – Farg'ona: Classic, 2021. – В. 105-112; Йўлдошев М. Бадий матнинг лисоний таҳлили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008; Курбонова М., Йўлдашев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 2014. – Б. 78-79.

¹⁷ Нурмонов А. Лексеманинг мазмуний мундарижаси / Фан, таълим, жамият. Тўплам. II чиқиш. – Андижон, 2007. – Б. 10-11; Розикова Г. Ноодатий боғланиш – услубий восита сифатида / ФарДУ Илмий хабарлари, 2018. – 3-сон. – Б. 116-117; Ўраева Д., Камолиддинова В. Ўзбек шоирларининг оксюморондан фойдаланиш маҳорати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. – ЎЗА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2021 йил апрель сони – 82 б; Дўсматов Х., Базарбаева Н. Зебо Мирзонинг оксюморондан фойдаланиш

Ushbu ilmiy ishlarda aynan g'ayriodatiy birikmalar emas, umuman, noodatiy birikishlar xususida ba'zi fikr-mulohazalar keltiriladi, g'ayriodatiy hamda allofronik bog'lanmalarining bir ko'rinishi sifatida oksyumoron ham o'rganiladi. Shuningdek, ayrim tilshunoslar har qaysi til qonuniyatlariga nisbatan anomal holatda g'ayriodatiy birikishni noodatiy birikma sifatida talqin etadilar, oksyumoroni g'ayriodatiy birikmalarining tarkibida baholaydilar.

O'zbek va rus tillaridagi g'ayriodatiy birikmalar ustida o'zbek tilshunosligida dastlab D.Zaynutdinova¹⁸ tadqiqot ishini olib borgan. U o'z ishini nomlashda g'ayriodatiy birikmalar terminidan foydalangan bo'lsa-da, asosan, dissertatsiyada oksyumoron termini ustunlik qiladi hamda tadqiqot doirasida har qanday noodatiy bog'lanishlarni shu termin atrofida birlashtiradi. Uzoq muddatdan so'ng A.Saminov¹⁹ "Oksyumoron – badiiy nutqda lingvopoetik vosita sifatida" mavzusidagi tadqiqotida oksyumoron termini ostida ayrim g'ayriodatiy birikmalarni ham tahlilga tortadi.

M.Xusanova o'zining "Farida Afro'z poetik asarlarida ekspressivlik ifodalovchi lisoniy vositalar tadqiqi"²⁰ mavzusidagi dissertatsiyasida g'ayriodatiy birikmalarni "noodatiy birikmalar" tarzida ataydi va unga ba'zi namunalar keltiradi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarning barchasida, garchi ular barmoq bilan sanarli bo'lsa-da, g'ayriodatiy birikmalar oksyumoron bilan chalkashtirib yuborilganligini ko'rish mumkin.

Bizningcha, bunday birikmalarining oksyumoron bilan munosabatini aniqlash, ularni tilshunoslikda alohida termin sifatida ajratib ko'rsatish, terminlarning o'zbek tilshunosligida "o'z mavqeyini tiklashi"ga erishish zarur. Tilshunoslikda "g'ayriodatiy birikmalar" terminini qo'llash esa, bizningcha, shu kabi qator muammoli masalalarni hal etishga oydinlik kiritadi.

Tadqiqotning **"G'ayriodatiy birikmalarining oksyumoron va okkazionalizm bilan munosabati"** deb nomlangan ikkinchi faslida g'ayriodatiy birikmalarining oksyumoron va okkazionalizm bilan o'xshashlik va farqli jihatlari ochib berilgan.

Tilshunoslikda g'ayriodatiy birikmalar "okkazionalizm", "okkazional birikmalar", "oksyumoron", ba'zan esa "atributiv birikmalar" terminlari bilan yuritiladi. Okkazional terminini rus tilshunosligida ilk bor N.I.Feldman qo'llagan. U "...okkazional so'zlarni so'z yasalishining mahsuldor bo'lmagan tiplari asosida vujudga keladigan va ma'lum matnga xos ma'no ifodasiga ega bo'lgan lisoniy

махорати / Профессор Акбаржон Матғозиев таваллудининг 80 йиллигига бағишланган "Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. I қисм. – Фарғона, 2014. – Б. 62; Садинова Н. Оксуморон ва унга прагматик ёндашув // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2018. – 5-сон. – Б. 105; Носирова У. Оксуморон ва унинг услубий-семантик хусусиятлари // Тил ва адабиёт таълими - Тошкент, 2013. – 1-сон. – Б. 39; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърлятида оксуморонларнинг бадий матн ҳосил қилишдаги ўрни / Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2-китоб. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – 268 б.

¹⁸ Зайнутдинова Д. Необычные словосочетания в русском и узбекском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 135 б.

¹⁹ Саминов А. Оксуморон – бадий нутқда лингвopoэтик восита сифатида: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 50 б.

²⁰ Xusanova M. Farida Afro'z poetik asarlarida ekspressivlik ifodalovchi lisoniy vositalar tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri ... diss. – Farg'ona, 2022. – 132 б.

birliklar”²¹ sifatida izohlaydi. A.G.Likov, E.Xanpira, V.V.Lopatinlar²² ham mazkur atamani o‘z ishlarida qo‘llaganlar. O‘tgan asrning 70-yillarida okkazionalizm muammosi yuzasidan rus tilshunosligida bir qancha ishlar yuzaga keldi. Okkazionalizmlarning ayrim xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida A.Madrahimov, S.To‘ra-bekova, Q.Samadov, B.Choriyev, M.Mirtojiyev, I.Mirzayev, B.Yuldashev, B.Nazarov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, B.Yoriyev, I.Toshaliyev va M.Jo‘ra-boyevalarning ishlarida²³ o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida 90-yillarning oxirida “O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalihi” mavzusida S.Toshaliyeva²⁴ nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. U o‘z ishida okkazionalizmlarning yasalihi, o‘ziga xos turlari, okkazional so‘z yasalihi usullarini atroflicha yoritib berdi.

Lingvistik terminlarning izohli lug‘atida okkazionalizmga quyidagicha ta’rif keltiriladi: “Mahsuldor bo‘lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o‘zida qo‘llangan so‘z, individual-uslubiy neologizm.”²⁵

Bizningcha, g‘ayriodatiy birikmalarga yuqorida aytilgan bu xususiyatlarning hammasi ham xos emas, g‘ayriodatiy birikmalar matn nuqtayi nazari bilan yaratilishi tabiiy, lekin ular faqatgina shu matnga va nutqqa xos bo‘lib qolmasdan, tilga ham ko‘chishi, takror qo‘llanish xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi mumkin (*shirin so‘z, achchiq haqiqat, shirin muomala* kabi).

“O‘zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari” mavzusidagi leksik okkazionalizmga bag‘ishlangan tadqiqotida O.To‘xtasinova leksik okkazionalizmlarning yasalihi, so‘z turkumlariga ko‘ra tasnifi, okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifasi haqida keng va atroflicha fikr yuritadi. Jumladan, u bu termin haqida o‘zining quyidagi mulohazasini bildiradi: “Okkazionalizmlar o‘quvchi yoki tinglovchilarning hissiyotiga ta’sir etib, ularda yangilanish, ta’sirchanlik yoki qo‘zg‘alishni vujudga keltirar ekan, bu estetik vazifaning namoyon bo‘lishidir”²⁶.

²¹ Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. – Москва, 1957. – №4. – С. 66.

²² Лыков А.Г. Окказиональные слова как лексическая единица речи // Филологические науки. – Москва, 1971. – №5. – С. 70-81; Ханпира Э. Окказиональное словообразование В.В. Маяковского: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956. – С. 16; Лопатин В.В. Рождение слова / Неологизмы и окказиональное словообразование. – М.: Наука, 1973. – С. 150-152.

²³ Мадрахимов А. Прилагательные новообразования в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1955 – С. 13; Тўрабекова С. Тил ва услуб. – Тошкент: Ўздабий нашр, 1963. – Б. 98; Саматов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Тошкент: Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1965. – Б. 32; Миртожиев М. Окказионал маъно / Ўзбек тилшунослиги масалалари. ТошДУ Илмий ишлар тўп. – Тошкент: 1973. – Б. 90-98; Мирзаев И. Жулқунбой сатирасида тил ва услуб / А.Қодирий ижодий эволюцияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 30-39; Назаров Б. Ҳ.Ҳ.Ниёзий поэтикасига доир / Ҳ.Ҳақимзода ижоди проблемалари. – Ташкент: Фан, 1988 – Б. 320; Маҳмудов Н. Сўз масъулияти // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985. – 18 январь; Умурқулов Б. Шеърятда окказионал сўзлар / Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 89-93; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 51; Ёриев Б. Шайхзода поэзиясида окказионализмлар / Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар. – Самарқанд, 1981. – Б. 77-80; Тошалиев И., Жўрабоева М. Ҳозирги ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши / Ўзбек тили стилистикасининг актуал масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 29-49.

²⁴ Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 170 б.

²⁵ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2002. – Б. 74.

²⁶ Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 135.

Bizningcha, bu xususiyati jihatidan okkazonalizmlar g'ayriodatiy birikmalarga yaqin turadi, ammo ulardagi yasalish xususiyati eng asosiy o'rinni egallashi, bir marta ishlatish uchun mo'ljallanganligi, faqatgina matnga xoslik belgilari g'ayriodatiy birikmalar bilan farqli ekanliklarini namoyon etadi.

Ayrim tilshunoslar okkazonalizmlarning vujudga kelish sabablaridan biri "...nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlash maqsadida til normalarining buzilishidir"²⁷, deb ta'kidlasa, ayrimlari esa "...okkazonalizmlarning yuzaga kelishida noqonuniylik mavjud"²⁸ deb hisoblaydi. Aytish mumkinki, har xil turdagi hissiy-ekspressiv va semantik-stilistik konstruksiyalar, so'zlardagi semantik og'ish va o'zgarishlar badiiy matnda so'zning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, buning oqibatida muallif fikrlari, his-tuyg'ularining eng yaxshi ko'rinishlari ifodalanadi.

Badiiy adabiyotda yozuvchilar nutqning majoziy, ifodali, kuchaytiruvchi vositasi sifatida ishlaydigan semantik burilishlardan foydalanadilar. Nutqning ko'plab bunday shakllari mavjud. Shulardan biri oksyumoron (oksimoron) dir. Bu adabiy atama yunon tilidan kelib chiqqan. Oksyumoron so'zi so'zma-so'z "aqli-ahmoq" degan ma'noni anglatadi. Oksyumoron hodisasi keskin qarama-qarshilik, ichki qarama-qarshilik ma'no belgilarining birikmasidan iborat nutqiy tuzilmadir.

Ayrim tilshunoslar g'ayriodatiy birikma termini ostida aynan oksyumoronni tushunadilar. Zabardast o'zbek tilshunos olimlaridan biri A.Nurmonovning bu boradagi quyidagi fikrini keltirish mumkin: "O'zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalar o'rtasida semik uyg'unlik, mazmuniy muvofiqlik bo'lmasa, bunday bog'lanish noodatiy bog'lanishni vujudga keltiradi va u oksyumoron deyiladi. Oksyumoronlar badiiy asarlarda obrazlilikni ta'minlash, ta'sirchanlikni oshirish uchun adibning individual nutqi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, *shirin o'lim, yashil sabo, qizil qor, yalpizga suyanmoq, kiprikka o'tirmoq* (M.Yusuf)"²⁹ kabilar. U o'zining qarashlarida mazkur sintaktik figura yuzasidan yuqoridagi ma'lumot hamda lisoniy dalillarni keltiradi. Bu bilan olim leksemalar o'rtasida hosil bo'luvchi semantik munosabatning asosiy vazifasiga urg'u beradi. U oksyumoron hodisasiga juda keng qamrovda baho beradi hamda so'zlarning har ikki qismi o'zaro semantik mos kelganlarini odatiy, bir-biriga semantik mos kelmaganlarini esa noodatiy hisoblab, ularni oksyumoron termini bilan ifodalaydi. Shuningdek, tadqiqotchi M.Abdupattoyev "Noodatiy bog'lanishlar ham muallif idiostilini belgilovchi bir vosita bo'lib, poetik nutqni shakllantirishda faol ishtirok etadi, shu bilan birga, badiiy nutq obrazlilik va ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita sanaladi"³⁰ tarzidagi qarashlarini bayon etadi.

Masalan, quyidagi iboralarni oksyumoron deb ataymiz: *achchiq quvonch; jiringlash sukunati; baqirgan sukunat; issiq muz; shirin og'riq; haqiqiy yolg'on; samimiy yolg'onchi; qichqiriq jimlik*. Keltirilgan misollarda ma'no jihatdan

²⁷ Земская Е.А Современный русский язык. Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. – С. 228.

²⁸ Хохлачаева В.Н. Индивидуальное словообразование в русском литературном языке XIX века // Материалы и исследования по истории русского языка. – М.: АН СССР, 1972. – С. 298.

²⁹ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 3-жилд – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 156; Нурмонов А. Лексеманинг мазмуний мундарижаси / Фан, таълим, жамият. Тўплам. II чикиш. – Андижон, 2007. – Б. 10-11.

³⁰ Абдулаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 132.

qarama-qarshi bo'lgan hodisalarning ta'riflari yoki xususiyatlari birlashtiriladi, buning natijasida yangi semantik sifat paydo bo'lib, ifodali badiiy tasvirni yaratishga yordam beradi. Oksyumoron, antiteza kabi, qarama-qarshiliklar ustiga qurilgan, ammo bu stilistik figuraning bir qismi sifatida ular qarama-qarshi emas, balki bir butunlikni hosil qiladi.

Har bir aniq vaziyatda biz tilning o'ziga xos holatiga – barqaror munosabatlar bilan bog'langan til birliklari to'plamiga duch kelamiz. Qimmatbaho tosh kabi, til ham tabiatan ko'p qirrali bo'lib, yangi ranglar bilan “jilolanishi” mumkin. To'satdan so'z yoki jumlada mutlaqo yangi ma'no qirralari paydo bo'lishi, chuqur assotsiatsiyalarni qo'zg'atishi va yangi, chuqur ma'noni tug'dirishi mumkin.

Ko'plab yozuvchilar asarlarida oksyumoron asosida birikmalar tuzishga murojaat qiladilar. Professor N.Mahmudov oksyumoron haqida shunday fikr yuritadi: “Ayrim hollarda esa ma'nolari bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan so'zlarni o'zaro bog'lash bilan g'ayriodatiy birikmalar hosil qilinadi. Bunda birikma juda yuqori ekspressivlik va emotsionallik kasb etadi, kuchli empatik intonatsiyaga ega bo'ladi. Adabiyotshunoslikda bu oksyumoron nomi bilan yuritiladi”³¹. Anglashiladiki, oksyumoron ko'plab olimlar tomonidan adabiyotshunoslik termini sifatida baholanadi.

G'ayriodatiy birikmalarning ajralib turadigan o'ziga xos ustuvor xususiyatlaridan biri – bu so'zlardagi semantikaning g'ayriodatiy, noodatiy munosabat hosil qilishidir. Bizningcha, oksyumoronda ham bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois oksyumoronni ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan g'ayriodatiy birikmalar termini ostida tadqiq qilish mumkin.

Birinchi bobning uchinchi fasli “**Badiiy matn lingvopoetikasida g'ayriodatiy birikmalar**” deb nomlanadi. Ishning bu qismida g'ayriodatiy birikmalarning badiiy matni lingvopoetik tahlil qilishda, uning lingvopoetik qiymatini aniqlashdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Lingvopoetikaning asosiy o'rganish obyekti badiiy matn hisoblanadi. Biroq badiiy matn nobadiiy matn bilan solishtirilganda, uning o'ziga xos xususiyatlari yaqqolroq ko'rinadi. Badiiy matn badiiy-estetik yaxlitlik sifatida benihoya serqatlam va murakkab hodisadir. Badiiy matn ifodalayotgan asosiy fikrni anglab yetish, tushunish shunchaki oddiy ish emas, balki o'ziga xos qiyin va murakkab jarayondir. Badiiy asar mazmunini to'g'ri tushuna bilish insondagi ma'naviy-madaniy, aqliy-lisoniy, hissiy-estetik faoliyat sabab amalga oshadi.

Lingvopoetikaning konseptual apparati ushbu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish imkonini beradi. Lingvistik stilistika bilan solishtirganda tadqiqot adabiyot va lingvopoetik tahlilning mavjud usullari badiiy matnga xos alohida elementlarga ham, matnni bir butun sifatida ko'rib chiqishga ham tegishlidir. Biroq lingvopoetikaning turli jihatlarini nisbatan ishlab chiqilganiga qaramay, ba'zi masalalar hali ham aniqlanishi kerak: boshqa yo'nalishlar qatori bu nasrni o'rganish usullari masalasidir. Bugungi kunda lingvopoetika yo'nalishida ham she'riy asarlar tahliliga qaraganda nasriy asarlar tahliliga tortilgan ishlar kamchilikni tashkil etadi. Shu boisdan ham biz tadqiqotimizni ko'proq nasriy

³¹ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 45.

asarlar ustida olib borishga qaror qildik. Yozuvchi o‘zi his qilayotgan tuyg‘ularni o‘quvchiga badiiy, obrazli tarzda yetkazib berish, o‘quvchining o‘z hissiy olamida bemaol sayr qila olishini ta‘minlash, uni ham xuddi o‘zidek fikrlar ummoni oldida yolg‘iz qoldirib, ulardan turli ma‘no injaliklarini tera olishlariga imkon yaratish maqsadida ham o‘zi yaratayotgan badiiy asarida turfa xil ko‘rinishda g‘ayriodatiy birikmalarni yuzaga keltiradi va tilning estetik vazifasini namoyon etishi uchun ajib bir qulayliklar hadya etadi. Bunday birikmalarni tuza olish yozuvchidan o‘ziga xos katta mahorat, so‘zlar bilan so‘zlasha olish, so‘zlarning “tilini topa bilish” kabi iqtidor, aqliy salohiyat, badiiy ustamonlikni talab etadi. Har qaysi ijodkor ham bu kabi birikmalarni yangidan yarata olmasligi mumkin. Lekin shunday g‘ayriodatiy birikmalar ham bo‘ladiki, ular bir muallif tomonidan yaratilib, keyinchalik boshqa bir yozuvchi tomonidan qo‘llanilishi, bora-bora bu birikmalar iste‘molga ko‘proq aralashishi natijasida badiiy nutqdan tilga ko‘chib qoladi. Shunday bo‘lsa-da, u baribir g‘ayriodatiy birikmaligicha qoladi, faqat o‘zidagi estetiklik darajasini biroz kamaytiradi. Bizningcha, badiiy matnda g‘ayriodatiy birikmalarga yuklatiladigan vazifa shundan iboratki, eng avvalo, ular asardagi estetiklik yukini oladi, matnning lingvopoetik jihatdan qimmatini oshiradi, o‘quvchiga hissiy-emotsional ta‘sir ko‘rsatish bilan birga asarning badiiy ekspressivligi va emotsionalligining ham ma‘lum darajada o‘sishiga sabab bo‘ladi. Fikrimizning isboti o‘laroq, quyida shunday g‘ayriodatiy birikmalar ishtirok etgan badiiy nutq parchalaridan namunalar keltiramiz.

Asadbek darg‘azab edi. – Asadbek tahdidning libosini kiyib olgan edi. (T.Malik, «Shaytanat»). Keltirilgan ikki gapga diqqat qilaylik. Birinchi gapda so‘zlar o‘z ma‘nolarida, o‘quvchi bir qarashdayoq gapning mazmunini to‘liq tushunadigan holda aniq va qisqa gap shaklini ko‘ramiz, ya‘ni Asadbekning g‘azablangani haqidagi axborotni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilamiz. Ikkinchi gapda esa, yuzaki o‘qilganda, Asadbek qandaydir libos kiyib olgani bilan tanishamiz, yanada chuqurroq e‘tibor bersak, bu libos tahdidning libosi ekanligini bilamiz, ana shu yerda bizning tafakkurimizda uyg‘onish sodir bo‘ladiki, bunga “tahdidning libosi” birikmasi sabab bo‘ladi. Shundan so‘ng anglash bosqichiga o‘tamiz: tahdid – bu “qo‘rqitish, do‘q-po‘pisa”³² kabi ma‘nolarni bildiruvchi mavhum ot sanalgani holda uning qanday libosi bo‘lishi mumkin, degan savol tug‘iladi; *libos* so‘zi ongimizda “kiyim, ust-bosh”³³ni anglatuvchi so‘z sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif so‘zlardagi o‘z va ko‘chma ma‘nolarini ifodalay olish imkoniyatlarini bilgani holda, *libos* so‘zining badiiy tasvirda o‘ragan, qoplagan narsa ma‘nosiga nisbatan ko‘chma ma‘noda qo‘llanishini asos qilib oladi va uni *tahdid* so‘zi bilan birga qo‘llash orqali qahramon tashqi qiyofasining badiiy tasvirini berishda o‘rinli foydalanadi. *Libos* so‘zi bilan bu xilda birikma hosil qilish boshqa bir asarda ham uchraydi: *Qishloq ustida kuzning atlas libosi lovullab yonadi* (O‘.Hoshimov, “Bahor qaytmaydi”).

Ba‘zan g‘ayriodatiy birikma butun bir gapni egallaydi, uyushiq bo‘laklar holatida uchraydi: *Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli*

³² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 4-жилд. – Тошкент: “ЎзМЭ”, 2006. – Б. 41.

³³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 2-жилд. – Тошкент: “ЎзМЭ”, 2006. – Б. 496.

yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvullaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi (A.Qahhor, "Dahshat"). Ushbu parchadagi g'ayriodatiy birikmalar – *shamol chiyillaydi, g'uvullaydi, vishillaydi, uf tortadi*. Yozuvchining bu o'rinda uyushiq bo'laklardan foydalanishining sababi tabiat hodisasi sanalmish shamol uzoq vaqt davom etayotgani, ikki haftadan buyon to'xtovsiz esayotgani, shu bilan birga, kishiga yoqimsiz ekani, shamol esaverib hammani zeriktirganini obrazli tarzda ifoda etmoqda. Shamol daraxt shoxlarini u yoqdan bu yoqqa qayirgani, buning oqibatida u chiyillashi, g'uvullashi, tomlarda esa vishillagan ovoz chiqarishi, yopiq eshiklarga boshini urib, go'yoki ichkariga kirolmagani uchun uf tortishi juda katta badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Xuddi shu gapni yozuvchi *Ikki haftadan buyon shamol tinmay esyapti, daraxtlar shoxini tinmasdan qimirlatyapti, tomlarda ovoz chiqaryapti, yopiq eshiklarni esa qimirlatib yuboryapti* ko'rinishida tuzishi mumkin edi, lekin bunda badiiylilik, obrazlilik, estetik ta'sir kuchi yo'qolgan bo'lardi.

Muallif gap tuzishni, gapda fikr ifodalashning ajib bir usulini tanlaganki, pirovardida matnni o'qigan kishida asarni o'qishga bo'lgan ishtiyoq yanada ortadi, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni chuqurroq his etishni boshlaydi. Badiiy matnning o'quvchini o'ziga ana shunday ipsiz bog'lashi, turfa xil g'ayriodatiy birikmalardan foydalanish orqali matndan yuksak estetik zavq olishiga erishishi, albatta, yozuvchining badiiy mahorati, yuksak badiiy tafakkuri, so'zlarga estetik vazifa yukini yuklay olishi bilan sodir bo'ladi. Bu esa badiiy matn lingvopoetikasining asosiy bosh masalalaridandir.

Dissertasiyaning **"G'ayriodatiy birikmalarning semantik-grammatik xususiyatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobi g'ayriodatiy birikmalarning semantik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan.

Bobning **"G'ayriodatiy birikmalarning semantik xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi faslida g'ayriodatiy birikmalardagi so'zlarning semantik jihatdan birikish usullari va ularning semantik xususiyatlari xususida so'z boradi.

Professor M.Hakimov "O'zbek pragmalinqvistikasi asoslari" nomli kitobida rus tilshunos olimi V.V.Petrovning quyidagi fikrlarini keltiradi: "...inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqali pyesa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaydi, buning uchun, eng asosiysi, ijro mahorati, layoqatiga ham ega bo'lishi lozim"³⁴. Shuningdek, so'zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. G'ayriodatiy birikmalar o'ziga xos hissiy-ekspressiv stilistik rangga ega bo'lgan va ona tilida mos keladigan ekvivalentlarga ega bo'lmagan asl ma'nolaridan chekinish hosil qilgan so'zlar birikmalari hisoblanadi. Muallifning yaratgan g'ayriodatiy birikma shakllarini maqsadli til vositalaridan foydalangan holda talqin qilishda ma'lum kognitiv harakatlar va nostandart fikrlashdan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

G'ayriodatiy birikmalarni tuzishda so'zlardagi turli ma'no ko'chishlaridan, ular anglatadigan ko'chma ma'nolardan foydalanilar ekan, shu o'rinda bu

³⁴ Qarang: Hakimov M. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 8.

birikmalarni ana shu ma'no ko'chishi yuzasidan tahlilga tortamiz:

1. Metaforik yo'l bilan hosil qilingan birikmalar: *Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz"). *Farhod otaliq kabi o'tkir bu odamning bajara olmagan bu ishini men qanday bajararman?* (Fitrat, "Abulfayzxon").

2. Birikma tarkibidagi so'zlardan birini avval mavjud bo'lgan so'zning sinonimi bilan almashtirish natijasida yaratilgan g'ayriodatiy birikmalar: *Uning ko'ziga bu ish og'zining yeli bilan bitadiganday ko'ringan edi...* (A.Qahhor, "Muhabbat"). *Yosh qizning ko'ngil shishasiga bir tosh kelib tegganday bo'ldi* (T.Murod, "Yulduzlar mangu yonadi").

3. Sifatlash asosida tuzilgan, ya'ni epitet sifatida qo'llangan birikmalar: *Osmonda xoin oy kezar, behayo iljaygancha harom nurini sochar. Xiyonatkor shamol xoinona qiqir-qiqir kular edi* (O'.Hoshimov, "Dunyoning ishlari"). *Hamma jim qoldi. Har kim o'z oldida bir narsa topib shunga ko'z tikkan va u narsada Zebi – o'z otasini, Qurvonbibi – o'z erini, Salti esa qovog'idan doim qor yog'ib turadigan sovuq bir so'fni ko'rardi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz").

G'ayriodatiy birikmalarning badiiy matnda turli semantik xususiyatlarni ifodalashini, so'zlarni izohlayotgan ma'nosiga ko'ra turlarini ham misollar yordamida tahlil qilamiz.

1. Birikmalardagi tobe so'z hokim so'z bilan g'ayriodatiy qiyoslash hosil qiladi: *olov qizlar: Bu yerning olov qizlari butun vodiya mashhur edi* (A.Muxtor, "Chinor"); *o'kirgan dengiz: Xalq guvullab qasamyod qildi. Mingboshining keng hovlisida tiqilib yotgan olomon, dahshatli to'lqinlarini gulduros bilan yumalatib o'kirgan dengiz kabi to'lqinlanib hayqirdi* (M.Ismoilov, "Farg'ona tong otguncha"); *dard teggan terak yaprog'i: Har ikkimizning yuragimiz dard teggan terak yaprog'iday qaltirab turibdi* (G'.G'ulom, "Shum bola");

2. G'ayriodatiy birikmalar ostida allaqanday yashirin ma'no saqlanadi: *Tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas edi* (A.Qahhor, "Dahshat"); *Ammo bu shafqatsiz siyosatning sovuq izg'iridan o'zim to'ng'ib keturmen* (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar").

3. Biror narsa, voqea-hodisani ta'riflash maqsadida ishlatilgan g'ayriodatiy birikmalar: *Xira, irkit oy nurida ko'zlari vahshat bilan yonar, tishlari g'ijirlar, mo'ylovi qiyshayib ketganga o'xshardi* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi"); *Bu xunuk yig'i, erkak yig'isi orani ochiq qildi* (A.Muxtor, "Chinor");

4. Biror narsa yoki tushunchani nomlash mazmunini ifoda etadigan g'ayriodatiy birikmalar: *Sening hukumatining butun mamlakat ustiga temir parda tortgan! – dedi* (A.Qahhor, "Dumli odamlar"); *O'ylagan sari qora qatlamlar ochilib ketaverardi* (S.Ahmad, "Jimjitlik").

5. Insondagi his-tuyg'ularni o'zgacha tarzda ifodalaydigan g'ayriodatiy birikmalar: ... *So'ng chekda xo'rlangan va favqulodda chayqalg'an yuragi bilan ixtiyorsiz: "Makkor, insofsiz!" – dedi* (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar"); *Nafasi buncha issiq, muncha mazalik!* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz"); *Muhayyoga bu gap kalaka bo'lib tuyuldi shekilli, rangi bo'zarib kotibga ayiq qarash qildi...* (A.Qahhor, "Muhabbat" qissasi).

6. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirni ifoda etish mazmunidagi g‘ayriodatiy birikmalar: *Shamol terak barglarini beayov yulib xiralik qilardi* (T.Malik, “Alvido... bolalik”); *Paxtazor, yo‘l chetidagi daraxtlar lip-lip o‘tadi. Hammasi oymomonning yumshoq belanchagida orom olib tebranadi* (O‘.Hoshimov, “Ikki eshik orasi”); *Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh-u goh bu burchida, chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitmas edi.* (A.Qahhor, “Dahshat”); *Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganda unsiz titraydi* (A.Qahhor, “Dahshat”).

Bobning ikkinchi fasli **“G‘ayriodatiy birikmalarning morfologik xususiyatlari”** deb nomlanib, bu bo‘limda g‘ayriodatiy birikmalar so‘z turkumlari bilan ifodalanishi jihatidan tahlilga tortilgan.

Morfologik vositalar matn qismlarining sintagmatik munosabatlarini vujudga keltirishda va sintagmatik munosabatlarni ta‘minlashda o‘zining asosiy vazifasini bevosita bajaradi. Bizga ma‘lumki, sintagmatik aloqalar va sintagmatik munosabatlar matnni shakllantirishdagi eng muhim omillardan hisoblanadi. Badiiy matnning uzvlari orasidagi sintagmatik munosabatlarsiz yaxlit butunlikni namoyon etuvchi matnning, ayniqsa, badiiy matnning integratsiyasini ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuningdek, morfologik vositalar ham mana shu integrativ munosabatlar asosida estetik vazifa bajaradi, ayni paytda ma‘lum bir badiiy ma‘noning ifodalanishi uchun xizmat qiladi. Shu sabab badiiy matn lingvopoetik jihatdan tahlilga tortilganda morfologik birliklarning matnni tashkil etishdagi ahamiyatiga ham alohida e‘tibor berish lozim. Badiiy matnda morfologik vositalar jiddiy lingvopoetik qiymatga ega bo‘ladi, umumiy estetik butunlikning ajratib bo‘lmas unsurlariga aylanadi. Shu bois ham badiiy matnga lingvopoetik jihatdan qarashning shakllanishiga birinchilardan bo‘lib qo‘l urgan taniqli tadqiqotchilar “grammatika va poeziya o‘rtasidagi mutanosiblik masalasi”³⁵ga alohida e‘tibor qaratish zaruriligini ko‘p bor ta‘kidlaganlar.

Badiiy matnda morfologik vositalarning estetik vazifani namoyon etish usullari turfa xildir. “Maxsus so‘z formalari vositasida, shuningdek, ma‘lum bir grammatik ma‘no va funksiyaga ega bo‘lgan so‘z formasini maxsus qo‘llash orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalanishi”³⁶, shubhasiz, mana shu vazifaning yuzaga chiqishidir.

Badiiy matnda g‘ayriodatiy birikmalar o‘rganilar ekan, ularning so‘z turkumlariga ko‘ra qo‘llanilishi, birikmalar tarkibidagi so‘zlarning qaysi so‘z turkumlari bilan ko‘proq ifodalanishini ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Shu sabab quyida badiiy matnlarda qo‘llangan g‘ayriodatiy birikmalarning so‘z turkumlariga ko‘ra birikish usullarini tahlil qilamiz:

1. Sifat + ot ko‘rinishidagi g‘ayriodatiy birikmalar. Bizga ma‘lumki, so‘z birikmalarining birikish usullaridan eng ko‘p duch keladigan aniqlovchi+aniqlanmish, sifatlovchi+sifatlanmish ko‘rinishidagi birikmalar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi, shuningdek, biz tadqiq qilayotgan g‘ayriodatiy birikmalarda ham shu narsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Misol uchun: *xashaki*

³⁵ Якобсон Р. Поэзия грамматики и грамматика поэзии / Семиотика. – М.: Радуга, 1983. – С. 462.

³⁶ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 41.

shamol, qing'ir-qiyshiq ulfatlar, to'ng'ich hikoyalar, qo'lansa gap, zaif tabassum, o'tkir odam, toza shabada, suyuq hayajon, yumaloq sevgi, qora uyqu, yashil shabboda kabilar.

2. Sifat + fe'l ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalar: *sovuq vishillamoq, uzun so'ylashmoq, sovuq yonmoq, xomush nur sochmoq* kabi.

3. Ot + fe'l ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalar: *shamol o'kirar, shamol chiyillaydi, g'uvullaydi, vishillaydi, uf tortadi* kabi.

4. Ot + ot ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalar: *umr fasllari, sukunat seli, xayot to'lqini, alam shamoli, kulgu qanotlari, g'azab nayzasi, alam matosi, haqorat balchig'i, alvasti mish-mish, hayot asari, sukunat pardasi, ko'ngil shishasi, uvada bulutlar, qor ko'rpalari, vaqt daryosi* kabilar.

5. Yasama sifat + ot ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalar: *asabiy poshna sadolari, beozor tanbeh, horg'in nola, kasalmand xazon, olovli bulutlar* kabilar.

6. Sifatdosh + ot ko'rinishidagi birikmalar: *o'kirgan dengiz, chayqalg'an yurak, mudragan tog'* kabilar.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, so'zlarning birikish usullari xilma-xil, morfologik jihatdan g'ayriodatiy birikmalar hosil qilish imkoniyati turfa xildir. Bunday birikmalarni yaratishda ot, sifat, fe'l so'z turkumlari orasida nisbatan ustunlik qiladi, son, olmosh, ravish kabi so'z turkumlari bu jihatdan nafaol hisoblanadi.

Ushbu bobning **“G'ayriodatiy birikmalarning sintaktik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi faslida g'ayriodatiy birikmalar sintaktik jihatdan tahlilga tortilgan, ularning so'z birikmalari, kengaytirilgan birikma, butun gap shaklida ifodalanishi aniqlangan.

G'ayriodatiy birikmalar so'zlardagi semantikaning noodatiy birikish hosil qilishi natijasida tuzilgan birikmalardir. So'zlar ma'no talabi hamda shakliy muvofiqligi bilan muayyan doiradagi so'zlarning qurshovida bo'ladi. Ikki va undan ortiq so'zlarning birikma hosil qilishi uchun ma'lum bir grammatik bog'lanish lozim. So'zlarning o'zaro ham semantik, ham sintaktik jihatdan aloqaga kirishuvi ana shu grammatik bog'lanish sabab ro'y beradi. So'z birikmasi tarkibiy qismlarining semantik munosabati ichki tuzilishini ifodalasa, qismlarining tobelanish asosidagi shakliy munosabati uning tashqi tuzilishini ifodalaydi.

Quyida so'z birikmalarining birikish usullari andozasi bo'yicha yaratilgan g'ayriodatiy birikmalarni tahlilga tortamiz:

1. Ekspressivlikni yuqori darajada namoyon etadigan, kishini o'qiganda hayrat va tafakkurga undaydigan, o'quvchiga estetik zavq bera oladigan, bitishuv yo'li bilan hosil qilingan g'ayriodatiy birikmalar: *o'tli kuy, adolatsiz osmon, berahm tun, bebosh xohish, olov qizlar, kirlik kunlar, xunuk haqoratlar, achchiq qor uchqunlari, yashil sabo, sovuq shovqin* kabi.

2. Moslashuvli birikma qolipida tuzilgan g'ayriodatiy birikmalar: *urushning qora qanoti, tog'ning eskirgan to'ni, mag'lublikning tamg'asi, tahdidning libosi, gapning erkagi, og'zining yeli* kabilar.

So'z birikmalari nutq tizimida leksik, sintaktik va grammatik sath birliklari bilan uzviy munosabat hosil qiladi va matn yaratilishining eng asosiy uzvlaridan hisoblanadi. Ta'kidlash o'rinliki, matnning grammatik hamda lug'aviy

shakllanishida, uni mazmunan boyitishda, semantik jihatdan kengaytirishda, fikrning to'liq, ekspressiv bo'lishida, matnning emotsional-hissiy, badiiy-obrazli ta'sir kuchini olishida eng muhim asosiy vazifani bajaruvchi til birligi – so'z birikmalaridir. Xuddi mana shu vazifalarni badiiy matnlarda, ayniqsa, g'ayriodatiy birikmalar qoyilmaqom tarzda bajaradilar. Avval gapga, keyin esa butun bir matnga o'zining ta'sir kuchini o'tkaza oladigan so'z birikmalari aynan shu – g'ayriodatiy birikmalardir.

Ba'zan g'ayriodatiy birikmalar kengaytirilgan birikma, ibora ko'rinishida, sodda gap va qo'shma gap ko'rinishlarida ham voqelanadi:

1. Kengaytirilgan birikma ko'rinishida namoyon bo'ladigan g'ayriodatiy birikmalar: *Xalq guvullab qasamyod qildi. Mingboshining keng hovlisida tiqilib yotgan olomon, dahshatli to'lqinlarini gulduros bilan yumalatib o'kirgan dengiz kabi to'lqinlanib hayqirdi* (M.Ismoilij, "Farg'ona tong otguncha"); *Tog' shamoli o't-o'lanlarni yulqib o'ynayotgan, kuni bilan qizigan toshlarni yalab sovutayotgan zavol mahali Tolibjon uzoqdagi xotinini esladi* (S.Ahmad, "Jimjitlik");

2. Iboralardagi ba'zi so'zlarni almashtirish yoki unga o'zgartirish kiritish orqali yuzaga kelgan g'ayriodatiy birikmalar: *Sherali daromad qilgani gap topolmay, Shahrinisoning qo'lini ushladi* (A.Qahhor, "Anor"); *Otni topsang, topding, topmasang o'z o'pkang o'zing bilan bo'lsin* (T.Murod, "Ot kishnagan oqshom").

3. Butun gap holidagi g'ayriodatiy birikmalar: *Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi* (O'.Hoshimov, "Tushda kechgan umrlar"); *Zebi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo'ldi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz").

Bu kabi g'ayriodatiy birikmalar har qanday holatda ham badiiy matnga o'zgacha semantik bezak beruvchi, hissiy-emotsional ta'sirni kuchaytiruvchi badiiy-estetik vazifani a'lo darajada bajaradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Badiiy matnda g'ayriodatiy birikmalarining lingvopoetik aktuallashuvi"** deb nomlangan bo'lib, unda g'ayriodatiy birikmalarining badiiy-estetik vazifasi, ularning ekspressiv sintaksisdagi o'rni, ijodkorning badiiy tafakkur mahsuli ekanligi hamda sinesteziya bilan munosabati yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar o'rin egallagan.

Uchinchi bobning **"G'ayriodatiy birikmalarining badiiy-estetik vazifasi"** deb nomlangan birinchi faslida badiiy matnlarda g'ayriodatiy birikmalarga yuklatilgan badiiy-estetik vazifa yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

G'ayriodatiy birikmalar qaysi turdagi nutq jarayonida yuzaga kelishiga ko'ra, shu nutq jarayoni taqozo etgan vazifani ado etadi, shu bilan bir qatorda, nutqning ma'noviy-nominativ va kommunikativ ehtiyojini qondiradi. Misol uchun, yangilik bo'yog'ini yo'qotgan g'ayriodatiy birikmalar oddiy, neytral nutqda nisbatan oddiy kommunikativ vazifani bajarishi mumkin, ya'ni kishiga u qadar badiiy ta'sir etolmasligi mumkin, biroq badiiy nutq talabi bilan yaratilgan g'ayriodatiy birikmalar o'ziga xos badiiy-estetik vazifa bajaradi hamda shu matnga badiiylik bo'yog'ini olib kiradi.

Badiiy matnlarda qo'llanadigan g'ayriodatiy birikmalarni o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular turfa xil vazifalarni bajarish xususiyatlariga ega. Ularni

bajaradigan vazifalariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. G‘ayriodatiy birikmalarning nutqiy vazifasi. Avvalo tildagi barcha so‘zlar nominativ vazifa bajaradi, shuningdek, ayrim g‘ayriodatiy birikmalarda ham shu xususiyat namoyon bo‘ladi. Badiiy ijodkor g‘ayriodatiy birikmalarni tuzar ekan, borliqdagi biror narsa yoki hodisani, biror tushunchani aniq, jozibali ifodalashga intiladi. Bunda u yoki bu narsa yoxud tushunchani juda aniq nomlash maqsadida yoki nutq maqsadini to‘la yetkazib berish uchun tilda mavjud so‘zlardan favqulodda, g‘ayriodatiy birikmalar yaratiladi. Masalan, *O‘ylagan sari qora qatlamlar ochilib ketaverardi* (S.Ahmad, “Jimjitlik”). (*qora qatlamlar – yomon xotiralar*)

G‘ayriodatiy birikmalar ba‘zan yaxlit bir tushunchaning poetik obrazi ham bo‘lishi mumkin: *Ilk tong nuri kiprigingga qo‘nar, Ko‘zdan yuvib ketar qora uyquni* (A.Muxtor, “Bolalik”) parchasidagi *qora uyqu* birikmasi tun tushunchasi ifodasidir.

2. G‘ayriodatiy birikmalar tinglovchi yoki o‘quvchiga kutilmagan yangi xabar, ma‘lumot berish vazifasini ham bajaradi. Bunda voqea-hodisalar, kishilar xatti-harakatlarining belgilari, shaxs faoliyati haqida xabar beradi: *Berahm tun qa‘rini yorib o‘tib, uning qoshida paydo bo‘lgim kelmasdi* (Ch.Aytmatov, “Qiyomat”). – *Bolani qarg‘ama, Qumri! – dedi Oqsoqol beozor tanbeh berib* (O‘.Hoshimov, “Ikki eshik orasi”). *Xashaki shamol nima edi u insonning ko‘rganlari oldida* (T. Malik, “Alvido... bolalik”).

3. G‘ayriodatiy birikmalarning baholash vazifasi. G‘ayriodatiy birikmalar faqatgina insonning aqliy salohiyati – fikrlash qobiliyatigagina emas, balki uning hissiy olamiga, dunyoni, voqelikni qay darajada estetik qabul qilish jihatiga bog‘liq holda dunyoga keladi. Har bir ijodkor turli maqsadlarda g‘ayriodatiy birikmalar tuzar ekan, bu birikmalar orqali voqelikka o‘zining salbiy yoki ijobiy munosabatini ham ifodalaydi: a) neytral ma‘no ifodalovchi birikmalar: *og‘ir-bosiq gaplar, toza shabada, mavsumiy gap, temir parda, loqayd tomchilar, shom yegan oy*; b) salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan birikmalar: *dahshatli to‘lqinlar, o‘kirgan dengiz, alvasti mish-mish, haqorat balchig‘i, qora qatlamlar, xira, irkit oy, pishqirayotgan shamol, xiyonatkor yulduzlar, tajang qichqiriq*; d) ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan birikmalar: *nurli tuyg‘ular, g‘olib kulgu, toza odam, issiq bir iftixor tuyg‘usi, mayin iliqlik, kulgi toshib chiqayotgan lablar, shirin tuyg‘ular* kabi.

Ayrim g‘ayriodatiy birikmalar o‘quvchi tasavvurida o‘ta mavhum, tushunarsiz gavdalanadi. Ularning mazmuni matndagina ro‘yobga chiqishi mumkinligi kuzatiladi. Matn bilan tanishgandagina ularning qanday maqsad bilan yaratilganligi va aniq ma‘nolari ravshanlashadi.

4. G‘ayriodatiy birikmalarning badiiy-estetik vazifasi:

a) tilda mavjud bo‘lgan tushunchalarni o‘zgacha ko‘rinishda ifodalash uchun xizmat qiladi. *Yurak* so‘ziga nisbatan *to‘lqinlanmoq, hayajonlanmoq* so‘zi o‘rniga *chayqalmoq* so‘zining ishlatilishi, *osmono‘par* so‘zi o‘rniga *osmonteshar* so‘zining, *osma ko‘priklar* o‘rniga *osma ko‘chalar* tarzida ishlatilishiga e‘tibor beraylik: ... *So‘ng chekda xo‘rlangan va favqulodda chayqalg‘an yuragi bilan ixtiyorsiz: “Makkor, insofsiz!” – dedi* (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”); *Amerikaning*

ta'rifini ko'p eshitganman: ana osmonteshar imoralar-u, ana osma ko'chalar-u...(A.Qahhor, "Dumli odamlar");

b) ayrim g'ayriodatiy birikmalar so'zlarning yashirin ichki semalarini yuzaga chiqarish orqali tuziladi va matnga yangi semantik ma'no yuklash uchun ishlatiladi: *Eshon o'zining qora qilmishlarini eldan yashirish uchun qo'rg'onini baland devor bilan o'rab olgan, o'g'lim!* (O'.Hoshimov, "Tushda kechgan umrlar"). Bu gapda *qilmish* so'zidagi "nojo'ya harakat", "qilg'ilik" ma'nolari *qora* so'zidagi (narsalarning rangini bildiruvchi so'z bo'lsa-da), salbiy belgiga egalikni bildiruvchi – yomon ma'nosi bilan umumiylikni hosil qilgani holda, *qora qilmishlar* – yomon ishlar ma'nosini ifodalash birikmaning asosiy vazifasi sanaladi, ya'ni go'yoki qo'rg'onning devori baland qilib ko'tarilsa, Eshonning sodir etadigan yomon ishlari ko'rinmasdek;

d) ba'zan bir tushunchani ifodalashda umuman shu so'zga aloqador bo'lmagan so'zlarni birlashtirish orqali g'ayriodatiy birikmalar tuzilganiga guvoh bo'lamiz: misol uchun hayot yoki taqdir tushunchalarini ifoda etishda muallif uni *alamlar tikonzori* yoxud *tashvish choyshabi* ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalarni yaratadi: *Birovlarning onalari dur-u gavhar ustida tug'ib, zarhal choyshablarga yo'rgaklaydi. Sharif esa, o'zining nazarida, alamlar tikonzori ustida tug'ilib, tashvish choyshabiga yo'rgaklangan. Birovlar bu dunyo ne'matlaridan to'yib bahramand bo'lish uchun tug'ilgan bo'lsa, Sharif, o'zining nazarida, bu dunyodan nafratlanish uchungina tug'ilgan* (T.Malik, "Shaytanat").

5. G'ayriodatiy birikmalarning obrazlilikni ifodalash vazifasi estetik vazifa bilan qorishib ketadi, natijada yaratilgan holat kishida estetik tuyg'uning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi: *"Yomon ko'zdan asrasin, bunaqa husnni xudoyim har kimga ham beravermaydi, suygan bandasiga beradi. Bu zaifona chiroy emas, mardona chiroy", degan edi. Bugun "hasadgo'y" taqdir shu mardona chiroyni kemtik qilmoqchi bo'ldi. Ammo eplolmadi* (S.Ahmad, "Kiprikda qolgan tong").

Bobning "**G'ayriodatiy birikmalarning ekspressiv sintaksisdagi o'rni**" deb nomlangan ikkinchi faslida g'ayriodatiy birikmalarning ekspressiv-emotsionallikni ifoda etishi, ularning ekspressiv sintaksisdagi o'rni yoritilgan.

M.Yo'ldoshev o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'rinli ko'rsatib o'tganidek, "...badiiy matnda barcha birliklar, vositalar aynan teng badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmaydi. Badiiy matnda muayyan til birliklari, til vositalari alohida, ayri-ayri poetik qimmat kasb etadi, boshqalari esa tasvirda ishtirok etsa ham, poetik jihatdan passivroq bo'ladi. Yaxlit badiiy matn yoki muayyan badiiy kontekstga ko'ra, muayyan til birligi estetik jihatdan birinchi planga chiqadi va qo'shimcha, yangi badiiy ma'nolar ifodachisiga aylanadi"³⁷. Gapda odatiy so'zlar va ularning birikmalarini qo'llash o'rniga g'ayriodatiy tarzda tuzilgan birikmalarni qo'llash ekspressiv-emotsionallikni ifoda etishning eng muhim vositalaridandir. Bizning fikrimizcha, maxsus stilistik figuralardan biri bo'lgan g'ayriodatiy birikmalar ekspressivlik ifodalashning sintaktik usulini tashkil etadi. Ekspressivlik ifodalanishini bir sistema sifatida ko'rib chiqish, uning tilshunoslikda hali maxsus o'rganilmagani nuqtayi nazaridan qaralganda ham, katta nazariy va amaliy

³⁷ Ўйлошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 313.

ahamiyatga ega. *Ma'sumaning ko'nglini g'ashlik buluti chirmab turardi* gapida *g'ashlik buluti* birikmasi o'rinda "xafalik" so'zini ishlatib, *Ma'sumaning ko'nglida xafalik bor edi* tarzidagi gap tuzilishi; *Har nechuk Xolidiy temirdan emas, barcha bandalar kabi "loydan yasalgan" ekan. Ko'kragida uyg'ongan g'azab ummoni to'lqinlarining mavjini vujudi sig'dirolmay portladi. – Yo'qol! – dedi tishlarini g'ijirlatib. Tishlar g'azab vulqonini to'sib qolmoq qasdida g'ijirlar edi* (T.Malik, "Shaytanat"). *G'azab ummoni* birikmasi keltirilgan gapni butunligicha g'ayriodatiy deb hisoblash mumkin, aslida. Yozuvchi shu o'rinda soddaroq qilib *Xolidiy ko'p g'azabladi, u g'azablanganidan o'zini tuta olmadi* ko'rinishidagi jummalarni ham keltirishi mumkin edi. Lekin badiiy asar ijodkori o'quvchining asarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, asar bilan ishlashga qiziqishini orttirish, asardagi voqealar ustida atroflicha fikr yurita olishga undash maqsadida shu ko'rinishdagi g'ayriodatiy birikmalardan mohirona foydalana olgan.

Mahallaga alvasti mish-mish bosh tiqdi (A.Qahhor, "Muhabbat"). Ushbu gapdagi *alvasti mish-mish* birikmasini o'qish bilan o'quvchi yuzida nim tabassum zohir bo'ladi. Adib bu birikmada so'zlarni tanlashga nihoyatda zargarona yondashadi. Birikmada urg'u *alvasti* so'ziga tushadi, "*alvasti* – go'yo har xil qiyofada ko'rinadigan afsonaviy maxluq, jin, ajina; nihoyatda ko'rimsiz badbashara odam kabi ma'nolarni ifodalaydi"³⁸. Yozuvchi *alvasti* so'zini *mish-mish* so'ziga bog'lashda uning yashirin ma'no qirralariga e'tibor qaratadi va bu bilan xalq orasida tez tarqaluvchi mish-mishlarning nechog'lik yoqimsiz ekanligiga ham ishora beriladi.

"Sinesteziya va g'ayriodatiy birikmalar" deb nomlangan uchinchi faslda sinestetik metaforalar hamda g'ayriodatiy birikmalar o'rtasidagi bog'liqliklar haqida so'z boradi.

Ko'p yillardan buyon dunyo tilshunosligida metaforaga ko'chimning bir turi sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, uni o'rganishga, asosan, adabiyot, notiqlik, uslubiyat jihatidan yondashildi. Til hodisalarini antropotsentrik yondashuv asosida tadqiq qilish XX asrga kelib shakllana bordi, natijada metaforani yangicha talqin qilish yuzaga keldi va metaforani o'rganish keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi.

Bizni o'rab turgan olamdagi mavjud o'xshashliklarni oydinlashtirishda, ularni ilmiy o'rganishda ham metafora muhim o'rin tutadi. X.Ortega-i-Gasset metaforaga "tafakkurning, ilmiy bilishning zaruriy va muhim quroli" deya baho beradi. U "metaforaning ikkinchi holatdagi qo'llanilishi ko'proq psixik tushunchalarni ifodalashga asoslanadi, psixik obyektlarni nomlashgina emas, hatto tasavvur qilishning o'zi ham mushkuldir, ya'ni bunday obyektlarning ma'lum bir o'lchovga ega bo'lmasligi masalaning muhim jihati"³⁹ ekanligiga e'tibor qaratadi. Masalan, *deraza oynasi* birikmasida *oyna* so'zi ifodalayotgan ma'no tushunarli, albatta. Biroq *qalb oynasi* birikmasida *oyna* so'zi ifoda etayotgan ma'noni tasavvur qilish biroz mushkul. Ushbu tahlildan ayon bo'ladiki, metafora inson tasavvur olami imkoniyatlarini ma'lum ma'noda kengaytiradi. Bu jarayon orqali

³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-жилд – Тошкент: "ЎзМЭ", 2006. – Б. 68.

³⁹ Ортега –и – Гассет Х. Две великие метафоры / Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 68-81.

metaforaning nechog‘lik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi. Demak, metafora nafaqat nomlash, ifodalash vositasi, balki inson tafakkur olamining qudratli quroli hamdir. Professor N.Mahmudov “...metafora mohiyatidagi ikkiyoqlamalikka ko‘ra bu hodisaning ikki asosiy turi: lisoniy metafora va poetik (badiiy) metafora”⁴⁰ni farqlaydi. F.Usmonov ham lingvistik va badiiy metaforani farqlar ekan, “...lingvistik metafora ekspressiv emas, badiiy metafora esa ekspressiv xususiyatga ega”⁴¹ligini qayd etadi. R.Suvonova ham “...metafora natijasida hosil bo‘lgan ko‘chma ma‘noning ba‘zi hollarda ekspressiv-stilistik bo‘yoqqa ega, ayrim hollarda bunday bo‘yoqqa ega emas”⁴²ligini ko‘rsatadi.

Ta‘riflardan anglashiladiki, turli jabhada metaforani mohiyatan farqlash mumkin bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, metaforaning bosh vazifasi so‘z ifodalashi mumkin bo‘lgan barcha ma‘nolarini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Oddiy metaforik ma‘no ko‘chishida narsa-hodisalarning belgilariga ko‘ra oddiy o‘xshatish, personifikatsiyada narsa va hodisalardagi belgini jonlantirish orqali o‘xshatish, subyektiv holatdagi qiyoslash esa sinesteziyaning asosi hisoblanadi.

Ma‘lumki, tilshunoslik terminlari shu sohaga oid ilmiy bilimlarni bir tizimga solishda sezilarli ahamiyat kasb etadi. Terminlar ifoda etadigan nominativlik va ma‘no ko‘chishi, ma‘nodoshlik kabi hodisalar orqali ular badiiy matnda o‘rinli qo‘llaniladi. Matndagi voqea-hodisalarni tasvirlashdagi badiiy obrazlilikni, estetik ta‘sirchanlikni yanada oshirish uchun bu kabi terminlarning o‘rni beqiyos. G‘ayriodatiy birikmalar ham shular jumlasidandir. Professor N.Mahmudov “...metaforiklik tilning doimiy xususiyati, turli obyektlarning xususiyatlari, belgilari yoki munosabatlari o‘xshashlikka asoslanadi va ana shu o‘xshashlikka ko‘ra bir obyekt haqidagi ma‘lumotni ikkinchi obyektga ko‘chirishdagi kognitiv jarayon metafora hodisasining mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, metafora inson kognitiv faoliyatining, idrok quvvatining eng qudratli qurollaridan biri sifatida aqliy va lisoniy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch”⁴³ ekanligini alohida e‘tirof etadi.

G‘ayriodatiy birikmalarning sinestetik-metafora usulida noodatiy o‘ziga xos qo‘llanilish holatlarini ko‘plab o‘zbek yozuvchilarining badiiy asarlarida uchratamiz: *Ularning bir qanchasi qaynoq va achchiq tuhmatlarga chidolmay o‘zini o‘ldirdi* (O‘.Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”); *Derazalar lang ochiq, tashqaridan Shodasoyning muzdek shovullashi quloqqa chalinadi... Tog‘ shabadasi Shodasoyning sovuq shovqinini daralarga tarqatmoqda* (A.Muxtor, “Chinor”); *Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi* (O‘.Hoshimov, “Tushda kechgan umrlar”).

Uchinchi bobning to‘rtinchi fasli “**G‘ayriodatiy birikmalar - yuksak badiiy tafakkur mahsuli**” deb nomlanadi. Bu bo‘limdan turli ijodkorlar tomonidan yuksak tafakkur bilan badiiylik yuki yuklanib yaratilgan g‘ayriodatiy birikmalar xususida fikr-mulohazalar joy olgan.

⁴⁰ Махмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 4. – Б. 3-4.

⁴¹ Усмонов Ф. Термин, метафора ва синонимия / Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2015. – Б. 35.

⁴² Сувонова Р. Метафоралар таснифига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. – № 6. – Б. 111-112.

⁴³ Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно таракқиётида зиддият. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 7-9.

Badiiy matnni hosil qiluvchi soʻzlar ekspressivlik va emotsionallikni vujudga keltirishga xizmat qiladi, soʻzlar bilan minglab assotsiativ aloqalar hosil qiladi. Ammo badiiy matnda barcha soʻzlar teng huquqli va barcha soʻzlar tasviriy vosita deyish, bizningcha, nooʻrin. Bu borada bir misol tahliliga toʻxtalaylik: *Muhayyoga bu gap boshqacha tuyuldi shekilli, rangi oqarib kotibga qaradi; Muhayyoga bu gap kalaka boʻlib tuyuldi shekilli, rangi boʻzarib kotibga ayiq qarash qildi...* (A.Qahhor, “Muhabbat”).

Keltirilgan birinchi parchada badiiy mazmuni ifodalashdan koʻra obyektiv mazmuni ifodalash ustunlik qilmoqda. Ikkinchi gapda esa soʻzlar chinakam badiiy tasvir vositasi – tasviriy vosita sifatida faollashmoqda. *Muhayyoga gapning kalaka boʻlib tuyulishini* ifodalash fikrning yanada tushunarli boʻlishiga sabab boʻlmoqda, *ayiq qarash qilishi* esa oʻsha vaziyatdagi Muhayyoning hissiyoti, tashqi qiyofasini ifodalashda yanada badiiy-estetik qiymat kasb etmoqda.

Aytish mumkinki, gʻayriodatiy birikmalar gap yoki matnning semantik qurilishiga oʻzgartirish kiritadi. Gap yoki matndagi sintaktik-semantik strukturaning bir xilligi oʻquvchida zerikish hosil qiladi, mazmun idrok etilishining susayishiga, matnning estetik taʼsir quvvati pasayishiga sabab boʻladi. Gʻayriodatiy birikmalar tabiiy holda gapning yoki matnning “...semantik strukturasi buzishi, ulardagi gorizontal sintaktik aloqalarni yiqitishi”⁴⁴ barobarida matnga kutilmagan bir taʼkid, ekspressivlik baxsh etadi. Masalan, *Bu haqoratlar menga yomon taʼsir qildi* gapiga qaraganda *Xuddi haqorat balchigʻi orasida qolgandekman* (A.Qahhor, “Dahshat”) jumlasidagi gʻayriodatiy birikmali gap emotsional-ekspressivroq va tegishlicha semantik taʼkid olgan boʻlib, unda badiiy-poetik taʼkid miqdori sezilarli ortgan. Gapda muallif tomonidan qoʻllanilgan *haqorat balchigʻi* birikmasi haqiqatan gʻayriodatiydir. Bu birikmani tuzishda yozuvchidagi soʻzlarning tub va koʻchma maʼnolarini bilish, ularda semantik mushtaraklikni hosil qila olish, badiiy obrazlilikni kashf eta olish mahoratlari namoyon boʻlmoqda. Aslida ijodkor hissiy olamini, oʻz fikrini ifodalash uchun asosiy gap tuzilishini tanlar ekan, badiiy niyatiga mos ravishda gʻayriodatiy birikmalarni yaratadi va unga matndan mos oʻrinni tanlaydi.

Achomlashgan uzun kipriklar pastki qovogʻiga soya tashlagan, bejirim lablari qimtilgan, qaldirgʻoch qanotidan nusxa olgan qoshlari esa taranglashgan. U hozir xotining na kiprigiga, na qoshiga qaraydi (T.Malik, “Shaytanat”). Keltirilgan ushbu misoldagi *achomlashgan uzun kipriklar* birikmasidagi *achomlashmoq* soʻzi tirik jonzotlarga taalluqli xatti-harakatni ifoda etuvchi soʻz boʻlsa-da, muallif undan oʻzining ichki his-tuygʻularini oʻquvchiga yetkazib berishda ustalik bilan foydalangan. Ayolning koʻzlari endi ochilmas boʻlib, shunchalik qattiq yumilganki, kipriklar shunchalik qattiq achomlashganki, endi ular bir-birini hech qachon qoʻyib yubormasligi, shu bilan birga, bu uzun kipriklar ayolning husnini yanada goʻzallashtirib, unga koʻrk baxsh etib turuvchi omil ekanligi taʼkidlanmoqda.

Gʻayriodatiy birikmalarning badiiy qimmati matndagi boshqa soʻzlar bilan har doim ham teng emas, ularning lingvopoetik qimmati badiiy matnda sezilarli

⁴⁴ Александрова О.В. Проблемы экспрессивного синтаксиса. – М.: Высшая школа, 1984. – С. 30.

darajada ortadi. Yozuvchi o'z asarida bu kabi birikmalarni har safar o'z badiiy niyatiga muvofiq xilma-xil ma'no-mazmunlarni ifodalash uchun yangidan tuzadi. Shuning uchun ham yozuvchining badiiy mahoratini baholashda bunday g'ayriodatiy birikmalar lingvopoetikasi alohida ahamiyatga egadir.

XULOSA

O'zbek tilidagi badiiy matnlarda g'ayriodatiy birikmalarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari muammosini tadqiq etish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Badiiy nutqning semantik-sintaktik mexanizmlarini o'rganuvchi kommunikativ sintaksis muammolari orasida g'ayriodatiy birikmalar alohida muhim o'rin tutadi. Ular badiiy matnda alohida kommunikativ, semantik-struktur va ayni damda lingvopoetik xususiyatlari bilan xarakterlanadiki, bu birikmalarni o'rganish kommunikativ hamda poetik sintaksisning bir qator muammolariga aniqlik kiritish imkonini beradi.

2. Hozirga qadar o'zbek tilshunosligida matnga lingvopoetik kuch beruvchi okkazional birikmalar, oksyumoron hamda noodatiy birikmalarni umumlashtiruvchi yoki o'zaro farqlovchi termin mavjud emas. O'zbek tilshunosligida bu kabi hodisalarni to'g'ri talqin qilish, terminlarning o'z mo'tadil qiymatini aniqlashtirish uchun "g'ayriodatiy birikmalar" terminini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

3. G'ayriodatiy birikmalar o'zbek tili taraqqiyotida azaldan mavjud bo'lgan hodisadir, faqat ularning turli terminlar bilan nomlanishi, aynan o'ziga xos belgilar bilan ma'lum termin ostida ajratilmagani ularning yuzaga chiqmasligi uchun sabab bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida g'ayriodatiy birikmalar ancha faol qo'llanadigan va axborotning estetik jihatdan ta'sirli, badiiy-obrazli ifodalanishiga yordam beruvchi sintaktik vositalardan biri sifatida semantik-grammatik jihatdan ham, lingvopoetik jihatdan ham alohida ahamiyatga ega. Matn sintaksisi va lingvopoetikasini mukammal tasvirlash va tavsiflashda g'ayriodatiy birikmalarning o'rni beqiyos.

4. Kuzatishlarimiz natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, o'zbek tilidagi g'ayriodatiy birikmalar, ularning shakllanishi va birikish usullari sanoqli ishlardagina tilga olingan, ushbu sintaktik birlikning unga yondosh bo'lgan hodisalardan farqi, badiiy-estetik vazifalari, semantik-grammatik hamda lingvopoetik xususiyatlari alohida tadqiq qilingan emas.

5. G'ayriodatiy birikmalar nutqdagi ifoda vositalaridan biri bo'lib, muallifning muayyan maqsadini obrazli ifoda etishi uchun, so'zlardagi semantik valentlikni qasddan buzib, ularni o'zaro birikishga undab, yangicha umumiylik kasb etishiga erishish uchun yaratiladigan birikmalardir.

6. G'ayriodatiy birikmalarning oksyumoron va okkazional so'z birikmalari bilan munosabatini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, keltirilgan birliklarning barchasi – nutq birligi. G'ayriodatiy birikmalar va oksyumoronning bajaradigan vazifasi, birikish usulidagi g'ayritabiiylik xususiyatlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondosh hodisa deb hisoblash mumkin. Biroq okkazional so'zlarda ham bu

xususiyatlar mavjud bo'lsa-da, ulardagi yasalish xususiyati, ayni matnga xosligi, bir marta ishlatilishi, aynan muallifga xosligi bilan g'ayriodatiy birikmalardan farq qiladi. Badiiy adabiyotdagi okkazionalizmlar boshqa maqsadlarga mo'ljallangan bo'lib, ular tilga kirishga intilmaydi, ular faqat o'zi yaratilgan matnda "yashaydi", leksikografik manbalarda mustahkamlanmaydi va badiiy niyatni ifodalovchi obrazli vosita bo'lib xizmat qiladi.

7. G'ayriodatiy birikmalarning so'z turkumlari bilan qo'llanishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, badiiy nutqda sifat+ot hamda ot+ot ko'rinishidagi birikmalar eng faol, sifat+fe'l, ot+fe'l ko'rinishi esa biroz kam, undan ham ozroq miqdorni sifatdosh+fe'l hamda ravish+fe'l ko'rinishidagi birikmalar tashkil etadi. Birikmalarni o'rganish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, g'ayriodatiy birikmalarning son va olmosh bilan ifodalanishi deyarli uchramadi. Bunga sabab son va olmosh turkumidagi so'zlarning badiiy-estetik vazifa yukini deyarli olmasligidir.

8. G'ayriodatiy birikmalar quyidagicha vazifalarni bajaradi: nutqiy-nominativ vazifa bajaradi (*qora qatlamlar* – xotiralar; *qora uyqu* - tun); xabar, ma'lumot berish vazifasi (*xashaki shamol*; *asabiy poshna sadolari*); baholash vazifasi (*temir parda* – neytral; *haqorat balchig'i* – salbiy; *shirin tuyg'ular* – ijobiy); badiiy-estetik vazifa (*qora qilmishlar*, *tashvish choyshabi*); obrazlilikni ifodalash vazifasi (*zaifona chiroy*, *hasadgo'y taqdir*) va hokazo.

9. G'ayriodatiy birikmalarning semantik-struktur, kommunikativ va lingvopoetik mohiyati matn doirasida to'liq namoyon bo'ladi. Hatto ularning ayrim ko'rinishlari faqat gap emas, balki yaxlit kontekstga taalluqli bo'ladi. Shuning uchun ham g'ayriodatiy birikmalarni matn ichida, matnning o'ziga xos unsuri sifatida o'rganish maqsadga muvofiq.

10. Turli sintaktik ko'rinishdagi g'ayriodatiy birikmalar badiiy matnda gap va mikromatn bilan bevosita bog'lanadi. Bunda xilma-xil ma'no va mazmunlar poetik ta'kid oladi. G'ayriodatiy birikmalar ekspressiv-emotsional sintaksis birligidir. Ular bevosita aloqalangan birliklar, matndagi mazmuniy va mantiqiy daxldor bo'lgan unsurlar bilan integrativ munosabatlarda lingvopoetik qimmat kasb etadi.

11. G'ayriodatiy birikmalarni tadqiq qilish so'zlarning nutqda voqelanishi, nutqda so'z bajaruvchi nominativ, semantik ko'pqirralilik, badiiy-estetik hamda lingvopoetik vazifalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga imkon beradi.

12. Ijodkorlarning badiiy-estetik tasavvur bilan boyitilgan xayolot dunyosi mahsulini kitobxonga yetkazuvchi g'ayriodatiy birikmalar asarning badiiy-estetik qimmatini sezilarli darajada oshirishi bilan birga, muallifning so'z qo'llash mahoratini, his-tuyg'ularni ifodalashdagi qobiliyatini belgilab berishda, ijodkor va kitobxon o'rtasida amalga oshadigan anglash-tushunish jarayonining yengil kechishida, tamoman begona bo'lgan vaziyatlarni yanada yaxshiroq va estetik did bilan sodir bo'lishida tom ma'noda ko'prik vazifasini o'taydi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE,
LITERATURE AND FOLKLORE**

KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

AKBAROVA MUNIRA SHAVKATOVNA

**LINGUOPOETIC FEATURES OF UNUSUAL COMPOUNDS IN
LITERARY TEXT**

10.00.01 – Uzbek language

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Toshkent – 2024

The theme of the Dissertation for the degree of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan with the number B2022.1.PhD/Fil2157.

The dissertation was completed at the Kokand State Pedagogical Institute named after Mukimi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website of www.tai.uz and the information and educational portal "Ziynet" www.ziynet.uz.

Scientific supervisor:	Jamoliddinova Dilnoza Mirhajiddinovna Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna Doctor of Philological Sciences, Professor
	Yuldashev Marufjan Muhammadjanovich Doctor of Philological Sciences, Professor
Lead organization:	Jizzakh State Pedagogical University

The defense of dissertation will be held on "15" may 2024 at 14.00 at the session of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 on award scientific degrees at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences (Address: 100060, Tashkent, Shakhrisabz street, 5. Tel: (99871) 233-36-50, fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

The dissertation available in the Main Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered by the number 20. Address: 100100, Tashkent, Ziyolilar street, 13. Tel: (99871) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on "19" april 2024.
(Register protocol on "19" april 2024).




N.M. Mahmudov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
Doctor of Sciences on Philology, Professor


G.M. Ismailov
Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
Candidate of Sciences on Philology, Professor

D.S. Xudayberganova
Chairman of the academic seminar under the
Scientific Council awarding scientific degrees,
Doctor of Sciences on Philology, Professor

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. Since the mid-20th century, the ways in which linguists approach the study of literary texts have evolved. During this time, there was an increased interest in analyzing artistic texts through various linguistic lenses, such as sociolinguistics, pragmalinguistics, linguocognition, linguoculture, and linguopoetics. The trend towards anthropocentric linguistics has led to the study and appreciation of various aspects in linguistic science. These aspects include the author's worldview, his imaginative perception of the world, associative intelligence, personal experience, attitude towards reality, of course, how these elements manifest in artistic expression. Studying the exceptional thinking of poets and writers and evaluating the significance of the units and phrases they use to describe reality in their artistic works is highly relevant in the field of linguistics today.

The analysis of poetic speech in terms of linguopoetic issues has become a central concern of world linguistics. When it comes to literary texts, poetry stands out due to its high level of emotionality and imagery. Through thrilling expression, the author conveys own inner feelings to the reader, affecting his emotions. Also, it allows the reader to see reality through the author's perspective. The object, purpose, and objectives of linguopoetic research are determined by the need to study the process, resulting in the formation of stylistic fields. In world linguistics, issues like this are considered crucial matters of linguopoetics.

Although Uzbek linguistics has made progress in studying syntactic units, monographic studies of unusual compounds have not been conducted. Studying unusual compounds of words helps to gain a deeper understanding of the meanings expressed in artistic speech. This is particularly relevant in connection with creative artistic thinking. "In today's era of globalization, it is natural for each independent country to prioritize ensuring its national interests. Therefore, preserving and developing its culture, ancient values, and native language should be the foremost concern."¹ From this perspective, certain tasks involve clarifying the meaning of unique word compounds in the Uzbek language, identifying their semantic, grammatical, and motivational features, as well as analyzing their methodological, structural, and linguopoetic characteristics. Within Uzbek linguistics, the lack of monographic studies on the semantic and grammatical aspects of these unusual word compounds, as well as their linguistic and poetic implementation, indicates the relevance of this subject area. Furthermore, scientific and theoretical generalizations regarding their artistic and aesthetic significance have not yet been made.

